“Effekt Makarenko” telegram kanalida e’lon qilingan ma’lumotga Fanlar akademiyasining rasmiy munosabati: Bino va inshootlarni pasportizatsiyasi bo‘yicha ma’lumot

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta’minlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4794-sonli Qarori va Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 30-iyundagi “Bino va inshootlarning seysmik mustahkamligini baholash hamda elektron texnik pasportlarini shakllantirish tizimini joriy etish to‘g‘risida” gi 405-sonli Qarorining ijrosini ta’minlash bo‘yicha 2021-yil 6-iyuldan boshlab Respublikaning barcha hududlarida joylashgan bino va inshootlarning yagona integratsiyalashgan platformasi ishga tushirilgan.

Platformaning asosiy vazifasi – Respublikadagi vazirlik va idoralarga qarashli mavjud bino va inshootlarni elektron texnik pasportlarning yagona integratsiyalashgan platformasiga kiritish, ularning seysmik zaifligi bo‘yicha turlarga ajratish hamda texnik holatini baholash, seysmik xavf prognozi mavjud bo‘lgan hollarda bino va inshootlarning seysmik mustahkamligini o‘rganish, sodir bo‘lishi kutilayotgan zilzilaga tayyorgarlik ko‘rish va uning oqibatlari bartaraf etilishini ta’minlashga qaratilgan.

Vazirliklar, idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari, xo‘jalik birlashmalari hamda boshqa tashkilotlar bosqichma-bosqich tasarrufidagi barcha bino va inshootlarning elektron texnik pasportlarini shakillantirib, pasportbino.uz platformasiga kiritilmoqda. Hozirgi kungacha platformaga 157691 ta bino va inshootlar to‘g‘risida ma’lumotlar kiritilgan.

Shuningdek Transport inshootlari va gidrotexnik inshootlar ham bosqichma-bosqich platformaga kiritilmoqda. Jumladan 58 ta suv omborlari, 37 ta gidrouzellar, 28 ta nasos stansiyalar, 39 ta kanallar kiritildi. Transport inshootlaridan esa 7194 ta ko‘prik inshootlari platformaga kiritildi.

2021-yil platformaga kiritilgan ijtimoiy soha obyektlarining 649 tasi instrumental texnik tekshiruvdan o‘tkazildi. Natijalar asosida zilzilabardoshlik bo‘yicha instrumental texnik-tekshiruvdan o‘tkazilgan ijtimoiy soha obyektlari ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish davlat dasturiga kiritildi.

2022-yilda kiritilgan binolardan ijtimoiy sohaga tegishli 154 ta bino va inshootlar hozirgi kunda instirumental texnik tekshiruvdan o‘tkazilmoqda.

Fanlar akademiyasi ommaviy axborot vositalari vakillaridan tekshirilmagan ma’lumotlardan foydalanmaslikni so’raydi. Xolis va asosli ma’lumotlarga ega bo’lish uchun sizlarni Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi institutiga tashrif buyurib, ushbu sohada olib borilayotgan ishlar bilan yaqindan tanishishga taklif qilamiz.